

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

MUXTAROVA SHAXNOZA FAYZULLAYEVNA

**ARXEOLGIK TERMINLARNING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI
(ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi materiallar asosida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

UO‘K: 811:111+811.161.1+811.512.133:
902+81’374.4

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Muxtarova Shaxnoza Fayzullayevna

Arxeologik terminlarning qiyosiy-tipologik tahlili (ingliz, rus va o‘zbek tillari asosida) 3

Мухтарова Шахноза Файзуллаевна

Сопоставительно-типологический анализ археологических терминов (на материале английского, русского, и узбекского языков) 27

Mukhtarova Shakhnoza Fayzullayevna

A Comparative and Typological Analysis of Archaeological Terms (Based on English, Russian, and Uzbek Languages)..... 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 60

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

MUXTAROVA SHAXNOZA FAYZULLAYEVNA

**ARXEOLGIK TERMINLARNING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI
(ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi materiallar asosida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.1.PhD/Fil1152 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.samdhti.uz hamda "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Abdiyev Murodqosim Boliyevich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich**
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mamatov Abdi Eshankulovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "12" iyun soat 12 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 238-29-37; faks: (998666) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (63182 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "22" may kuni tarqatildi.
(2026-yil "22" may dagi № 48 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.Z. Nasrullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'. Qo'ldoshov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSC), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ilm-fan maydonida globallashuv va axborot almashuvi jarayonlarining jadallashuvi sohalarda ilmiy hamkorlikni kengaytirar ekan, ayniqsa arxeologiya sohasida olib borilayotgan tadqiqotlarning ko‘p tilli muhitda – ingliz, rus va o‘zbek tillarida – yuritilishi tilshunoslik, tarjimashunoslik va terminologiya fanlari uchun muhim nazariy va amaliy vazifalarni yuzaga chiqaradi. Bugungi globallashuv sharoitida ilm-fan va texnologiyalarning jadal sur‘atlar bilan rivojlanishi fanlararo hamkorlikni kengaytirish, ilmiy ma‘lumotlar almashuvini jadallashtirish va turli tillarda olib borilayotgan tadqiqotlar natijalarining xalqaro miqyosda muhokama qilinishiga olib keldi. Ko‘p tilli ilmiy muhitda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun terminlarning mazmuniy aniqligi va shakliy mosligini ta‘minlash zarurati mavjud bo‘lib, bu holat arxeologiya sohasidagi terminlarni qiyosiy-lingvistik tahlil qilish hamda ularni standartlashtirishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarning ilmiy ahamiyatini belgilaydi.

Dunyo miqyosida arxeologik terminlar ko‘p hollarda fanlararo mazmunga ega bo‘lib, ularning to‘g‘ri talqini va standartlashtirilgan qo‘llanilishi arxeologiya, tarix, madaniyatshunoslik, antropologiya, geologiya kabi ko‘plab fanlar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi arxeologik terminlarning qiyosiy-tipologik tahliliga asoslangan tadqiqot mazkur fanlar kesishmasida ilmiy-nazariy hamda amaliy muammolarni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mavzuning dolzarbligi, eng avvalo, arxeologik terminlarni mazmunan to‘g‘ri anglash, ularning tarjimada adekvat ifodalanishi va ilmiy diskursda yagona normativlik asosida qo‘llanilishini ta‘minlash zarurati bilan belgilanadi.

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda ilmiy til va terminologiyani milliy asosda rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Ayniqsa, arxeologiya kabi fanlararo sohalarda ishlatiladigan terminlarni tizimlashtirish, ularni ingliz, rus va o‘zbek tillari kesimida qiyosiy-tipologik tahlil etish orqali mazmuniy aniqlik va lingvistik moslikka erishish zarurati ortib bormoqda. Bunday ilmiy izlanishlar arxeologik terminlarning semantik xususiyatlarini, strukturaviy modellari va tarjima muammolarini aniqlab, ularni standartlashtirish va milliy ilmiy leksikonni boyitishga xizmat qiladi. Shu tariqa, o‘zbek ilmiy tilining izchil rivoji va xalqaro ilmiy muloqotda terminologik uyg‘unlikni ta‘minlash imkoniyati kengayadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvarda “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonlari, 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlarini rivojlantirish to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 2-fevralda “Ta‘lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-54-son Qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustda “Ta‘lim muassasalarida xorijiy tillarni o‘qitish sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 610-son hamda 2016-yil 20-oktabrdagi 352-sonli “Moddiy madaniy va arxeologik meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarolari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon miqyosida arxeologik terminologiyaning shakllanish xususiyatlari masalasi yetuk olimlarning ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan. Xususan, G.M.Speranza, Minasyan Erasmia, G.A.Gryzlova, V.D.Tabanakova, G.N.Matyushin, A.V.Superanskaya, Ye.N.Taranova, N.M.Milyuk, A.V.Minasyan, Yu.G.Kokorina¹ kabi tadqiqotchilar o‘z asarlarida arxeologik terminlarning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari, fanlararo integratsiya jarayonlari hamda ularning konseptual-semantik tizimdagi o‘rni bo‘yicha chuqur ilmiy tahlillar olib borgan. Ularning ishlari mazkur sohaning nazariy asoslarini boyitish va terminlarning standartlashtirilgan qo‘llanilishini ta‘minlashda muhim manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida ham arxeologik terminologiya masalasiga oid ilmiy izlanishlar faol rivojlanmoqda. Ilgari arxeologiyaga oid ilmiy adabiyotlarning asosan rus tilida yaratilgani sababli, ko‘plab terminlar o‘zbek tiliga

¹ Speranza, Giulia, Manna, Raffaele, di Buono, Maria Pia & Monti, Johanna. The Archaeo-Term Project: Multilingual Terminology in Archaeology. Лексико-семантические, структурные и функциональные особенности архитектурной лексики: на материале английского, немецкого, греческого и русского языков : дис.канд. филол. наук: 10.02.19 / Адыг. гос. Ун-т. – Майкоп, 2010. – 178 с., Gryzlova G.A. Stem-composition as the main way of word formation in archeological terminology. https://www.researchgate.net/publication/343421607_Stemcomposition_as_the_main_way_of_word_formation_in_archeologicalterminology. Электрон манба: 16.06.2024)//ResearchGate; Табанакова В.Д., Кокорина Ю.Г. Лингвистическое моделирование археологической терминологии: от археологического описания к параметрическому // Вестник Санкт-Петербургского университета. Язык и литература. 2020. №17(2). С.323–342. doi 10.21638/spbu09.2020.210, Matyushin G.N., (A Dictionary of Archaeology), Moscow, 1996. – p. 110., Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология: Вопросы теории. М.:Книжный дом «Либроком», 2012. 438 с., Таранова Е.Н. Проблематика современного теоретического терминоведения, достижения и недостатки терминологических исследований // Научные ведомости. Серия Гуманитарные науки. 2011. №24(119). Вып. 12. С.142–149., Милуок Н.М. Археологическая терминология в современном русском литературном языке: дис.канд. филол. наук. – Киев, 1985. – 179 с. <https://www.dissercat.com/content/arkheologicheskaya-terminologiya-v-sovremennom-russkom-literaturnom-yazyke> (murojat sanasi: 16.07.2025)., Минасян А.В. Семантический анализ терминологии русского языка, заимствованной из французского языка: дис. канд. филол. наук: 10.02.01. – Ростов-на-Дону, 2003. – 183 с. [Электронный ресурс] // Российская государственная библиотека, окорина Ю. Г. Археологическое знание в лингвистических описаниях: дис. д-ра филол. наук: 10.02.21 / Кокорина Юлия Георгиевна; ФГБУ «Институт языкознания Российской академии наук». – Москва, 2014. – 515 с.

rus tili orqali kirib kelgan. Bu jarayon terminlarning fonetik-morfologik moslashuvi va semantik talqinida muayyan o'zgarishlarga olib kelgan. J.Kabirov, B.Q.Turganov, U.M.Uvatov, M.I.Filanovich, G.A.Pugachenkova, E.M.Masson² kabi olimlarning tadqiqotlari o'zbek tilida arxeologik terminlar tizimini shakllantirish, ularni ilmiy muomalaga kiritish va izchil qo'llashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan.

Umumlashtirgan holda aytish mumkinki, xalqaro va mahalliy miqyosda arxeologik terminologiya bo'yicha shakllangan muayyan ilmiy-nazariy baza mavjud. Xalqaro tadqiqotlar, asosan, ko'p tilli lug'atlar, tezaruslar hamda terminologiyaning standartlashtirilishiga qaratilgan bo'lsa, mahalliy ilmiy izlanishlarda o'zbek va rus tillaridagi arxeologik terminlarning tarjima, yasalish va qo'llanish xususiyatlari tahlil qilingan. Kelgusida ushbu sohada, xususan, o'zbek arxeologik terminologiyasini tizimli o'rganish hamda uning xalqaro terminlar tizimi bilan funksional va semantik uyg'unligini ta'minlash bo'yicha yanada chuqur ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Zamonaviy lingvistika va lingvodidaktikaning kommunikativ aspektlari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: ingliz, rus va o'zbek tillarida shakllangan arxeologik terminlarning semantik, morfologik va funksional xususiyatlarini aniqlash, tarjima jarayonida yuzaga keladigan nomuvofiqlik va semantik tafovutlarni bartaraf etish yo'llarini belgilash hamda arxeologik terminlarni o'zbek tilidagi ilmiy-terminologik tizimni takomillashtirishga ilmiy asos yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz, rus va o'zbek tillarida qo'llanilayotgan arxeologik terminlarning leksik-semantik xususiyatlari hamda uch til terminologik tizimidagi umumiy va farqli jihatlarini aniqlash;

arxeologik terminlarning tarjima jarayonidagi lingvistik qonuniyatlari, semantik xususiyatlari va ekvivalentlik darajalarining moslashuvchanlik imkoniyatlarini o'rganish;

ingliz, rus va o'zbek tillarida arxeologik terminlarning tasnifi, semantik toifalanishi hamda leksik-ma'no tafovutlarini lingvistik-tipologik mezonlar asosida ishlab chiqish;

tarjimada uchraydigan arxeologik terminlarning nomuvofiqlilari, semantik siljishlar va leksik izchillik buzilishlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etishning ilmiy asoslarini asoslash.

² Kabilov J.K., Turganov B.K. Arxeologik tushunchalarning izohli lug'ati: терминологические вопросы археологии и перевод терминов с русского на узбекский язык // Учебное пособие. – Нукус, 2019. – 179 с., Муродович У.М. Исследования истории исламских источников, культурного наследия и документоведения в Центральной Азии // Собрание трудов Убайдуллы Уватова. – Ташкент, 2020. – С.12-47., Филанович М.И. Ташкент – зарождение и развитие города и городской культуры / Ин-т археологии АН УзССР. – Ташкент, 1983. – 227 с., Пугаченкова Г.А. Из истории искусства великого города (к 2500-летию Самарканда) / науч. ред. чл.-корр. АН УзССР Г.А. Пугаченкова; Ин-т искусствознания им. Хамзы. – Ташкент: Изд-во лит. и искусства им. Г. Гуляма, 1972. – 332 с., Массон М.Е., Пугаченкова Г.А. Парфянские ритоны Нисы / Труды ЮТАКЭ, т. IV. – Ашхабад, 1959. – 268 с.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi arxeologiya sohasi terminlari majmui hamda ular bilan bog‘liq lingvistik materiallar (lug‘atlar, ilmiy matnlar korpusi) olingan.

Tadqiqotning predmeti: ingliz, rus va o‘zbek arxeologik terminlarining qiyosiy-tipologik tahlili va tasnifi.

Tadqiqotning usullari. Mavzuni yoritishda tarixiy-qiyosiy, sistem-struktur, tasniflash, tavsiflash, kulturologik hamda lingvostatistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

«*Artefakt*» va «*stratigrafiya*» arxeologik terminlarining shakli, semantik mazmuni hamda qo‘llanishiga xos tizimlararo farqli jihatlar semantik kengayish va qisman ekvivalentlik tamoyillari asosida aniqlangan; xususan, ingliz tilida mazkur terminlarning analitik – bir necha ilmiy kontekst va ma‘nolarda qo‘llanishi, rus tilida sintetik-funksional jihatdan terminlarning amaliy-ilmiy vazifaga yo‘naltirilgan holda ishlatilishi, o‘zbek tilida esa differensial-semantik aniqlik saqlangan holda termin ma‘nosining kontekstga mos va nisbatan cheklangan tarzda qo‘llanishi asoslangan;

«*geoarxeologiya*», «*geoantropologiya*», «*moddiy madaniyat*», «*kompleks*» va «*madaniy gorizont*» arxeologik terminlari tahlil qilinib, xususan, «*geo*»-komponentining fanlararo integrativ ma‘no ifodalashi semantik xususiyat sifatida, «*madaniy gorizont*» kabi birikma terminlarning analitik tuzilishi esa strukturaviy xususiyat sifatida asoslangan; shuningdek, tarjima jarayonida termin ma‘nosining kengayishi yoki torayishi semantik transformatsiya sifatida aniqlanib, «*kompleks*» terminining «*archaeological complex*» shaklida qo‘llanishi bilan izohlangan; terminlarning ma‘no ko‘lamidagi farqlanishi va til tizimiga moslashuvi esa «*moddiy madaniyat*» terminining «*material culture*» shaklida keng antropologik mazmunda ifodalanishi orqali dalillangan;

«*industry–industriya*» (*tosh davri mehnat qurollari an‘anasi*), «*complex–arxeologik kompleks*», «*tomb–qabr*», «*layer–qatlam*» kabi o‘zbek tiliga kirib kelgan arxeologik terminlarning leksik-ma‘no tafovutlari ochib berilgan; xususan, ayrim terminlarning ingliz tilida keng ilmiy ma‘noda, rus tilida funksional-tarixiy mazmunda, o‘zbek tilida esa sohaviy aniqlik asosida qo‘llanishi aniqlangan va shu asosda arxeologik terminlarni tarjima qilishda yagona termin tanlash, kalkalash hamda transliteratsiya me‘yorlarini muvofiqlashtirish, terminlarni milliy ilmiy uslubga mos holda qo‘llashga doir uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

“*tools*”, “*trench*”, “*survey*”, “*burial context*” arxeologik terminlarining ilmiy diskursdagi qo‘llanish darajasi aniqlangan; xususan, “*trench*” terminining qazish hududi ma‘nosida tor sohaviy qo‘llanishi, “*survey*” terminining esa tadqiqot va kuzatuv ma‘nolarini qamrab oluvchi keng semantik xususiyati asoslab berilgan; shuningdek, terminlarning ilmiy va ta‘limiy jarayonlarda bir ma‘noda va izchil qo‘llanishi konseptual aniqlikni ta‘minlashi, uch tildagi tarjimada semantik mazmunning saqlanishi esa terminologik barqarorlikni kuchaytirishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ingliz, rus va o‘zbek tillarida arxeologik terminlarning qiyosiy-tipologik tahlili asosida ushbu tillardagi terminlar o‘rtasidagi semantik, strukturaviy va

leksik farqlanishlar aniqlanib, ularning tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvistik nomuvofiqliklar tizimlashtirildi. Tarjimada terminologik muvofiqlikni ta'minlash maqsadida interlingvistik nomutanosibliklar, semantik siljishlar va leksik izchillikning buzilish holatlari aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha nazariy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari arxeologik va lingvistik sohalar kesimida tilshunoslik, tarjimashunoslik va terminologiya fanlari bo'yicha tayyorlanayotgan mutaxassislar uchun o'quv-metodik material sifatida foydalanishga tavsiya etilishi mumkin. Dissertatsiyada shakllangan terminologik uslublar va taklif etilgan tasnif modellari o'zbek ilmiy tilida arxeologik terminlarni standartlashtirish, ularni zamonaviy ilmiy muomalaga to'g'ri kiritish hamda til siyosatining amaliy jihatlarida qo'llash uchun zarur ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ishda ingliz, rus va o'zbek tillaridagi arxeologik terminlarning real lingvistik material asosida qiyosiy-tipologik tahlil qilinishi, zamonaviy lingvistik metodlarga tayanilishi hamda ilgari mavjud ilmiy manbalar bilan solishtirma tahlil orqali mustahkamlanishi bilan asoslanadi. Foydalanilgan metod va yondashuvlarning aniqligi, terminologik birliklarning semantik va strukturaviy xususiyatlari asosida olingan xulosalar ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan konsepsiyalarga tayanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Arxeologik terminlarning rus, ingliz va o'zbek tillari kesimida qiyosiy-tipologik tahlili asosida terminologik tizimlar orasidagi semantik, morfologik va strukturaviy xususiyatlarning o'zaro farqlari hamda umumiyliklarini aniqlash orqali terminologiya fanining nazariy asoslarini boyitadi. Tadqiqot natijalari tilshunoslik, tarjimashunoslik, terminshunoslik sohalarida olib boriladigan izlanishlar uchun nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati arxeologik terminlarning aniq, izchil va standart shaklda qo'llanilishi ilmiy tarjima jarayonining sifatini oshiradi, o'zbek ilmiy tilining rivojlanishi va terminologik birxillikni ta'minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot materiali asosida lug'atlar, metodik qo'llanmalar va tarjima asoslari bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Arxeologik terminlarning qiyosiy-tipologik tahlili (ingliz, rus va o'zbek tillari misolida) jarayonida ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

arxeologik terminlarning ingliz, rus va o'zbek tillari materiali asosida amalga oshirilgan qiyosiy-tipologik tahlili natijasida ishlab chiqilgan nazariy xulosalar va ilmiy asoslar FA-F-1-G0003 "Qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalishi" (2017–2020) nomli fundamental loyiha doirasida samarali qo'llanildi (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2021-yil 11-oktabrdagi 284/1-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur joriy etish jarayoni davomida terminlarning yasalishi, shakl va semantik muvofiqlik mezonlarini aniqlashga oid uslubiy yondashuvlar boyitildi, tilshunoslikda terminologik birliklarni tahlil etishning ilmiy-nazariy asoslari takomillashtirildi hamda arxeologik terminologiya bo'yicha olib borilayotgan amaliy tadqiqotlarning metodik samaradorligi oshirildi;

tadqiqotda arxeologik terminlarning semantik va strukturaviy xususiyatlari, ularning tarjima jarayonidagi ekvivalentlik darajalari, kontekstual moslashuv imkoniyatlari hamda tarjimaga oid muammolari nazariy va amaliy asosda kompleks tahlil qilinishi natijasida olingan ilmiy xulosalar A-1-057 raqamli “Oliy ta’lim muassasalari talabalarini modulli o’qitishda pedagoglarni kompetent tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari” mavzusidagi amaliy tadqiqot doirasida samarali qo’llanildi (TATU Samarqand filialining, 2021-yil 16-noyabrdagi 639/0101-sonli ma’lumotnoma asosida). Natijada, sohaga oid terminlarning o’qitilishi bo’yicha chet tillari mashg’ulotlarining mazmuni takomillashtirildi, talabalar lingvistik kompetensiyasini rivojlantiruvchi metodik yondashuvlar boyitildi va o’quv jarayonining sifatini oshiruvchi pedagogik asoslar shakllantirildi. Mazkur natijalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga hamda ta’lim sohasida belgilangan davlat siyosati ustuvor yo’nalishlarining amaliyotga tatbiq etilishiga xizmat qildi;

ingliz, rus va o’zbek tillarida faol qo’llaniladigan arxeologik terminlarning klassifikatsiyasi, strukturaviy modeli, semantik toifalanishi va leksik-ma’no tafovutlari lingvistik-tipologik mezonlar asosida tizimli ravishda tahlil qilinishi natijasida olingan ilmiy natijalar O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Samarqand viloyati hududiy bo’linmasi qoshidagi “Sadoqat” ijodiy seminari faoliyatida yosh avlodni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash maqsadida amaliy jihatdan qo’llanildi (O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2021-yil 20-dekabrdagi №103-sonli ma’lumotnomasi). Natijada yosh ijodkorlarning badiiy tafakkuri va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, madaniy merosga ilmiy-nazariy yondashuvni shakllantirish hamda lingvistik tafakkurni boyitish jarayonida tadqiqot materiali samarali metodik vosita sifatida qo’llanish imkonini berdi;

arxeologik terminlarning interlingvistik tahlili natijasida tarjima jarayonida uchraydigan terminologik nomuvofiqliklar, semantik siljishlar va leksik izchillikning buzilishi kabi lingvistik hodisalar aniqlandi hamda ularni bartaraf etish yo’llariga oid nazariy takliflar ilmiy asosda ishlab chiqildi. Mazkur ilmiy natijalar “O’zbek tilining milliy korpusini loyihalash va dasturiy majmua ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida, xususan, Respublika oliy ta’lim muassasasi filiali tomonidan bajarilgan ishlar jarayonida amaliy tarzda qo’llanildi (TATU Samarqand filialining 2025-yil 29-iyuldagi №468/01-01-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, terminologik bazaning tizimlashtirilishi, tarjimada semantik aniqlikning ta’minlanishi va leksik barqarorlikning mustahkamlanishi yo’nalishida tadqiqot nazariy-metodik asos sifatida xizmat qildi hamda lingvistik standartlashtirish jarayonining ilmiy bazasini boyitdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro konferensiya va 6 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokamadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan 23 ta ilmiy maqola, jumladan, O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika, 4 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Disertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 172 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va uning respublikada fan hamda texnologiyalar rivojining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi asoslab berilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari aniqlangan, shuningdek, tadqiqot obyekti, predmeti va usullari ko'rsatilgan. Dissertatsiyada erishilgan ilmiy yangilik bayon etilib, ishning nazariy ahamiyati va amaliy qiymati ta'kidlangan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi **“Arxeologik terminologiyaning shakllanish tarixi”** deb nomlanib, unda arxeologik terminlar tizimining vujudga kelishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy, lingvistik hamda madaniy omillar kompleks tahlil etilgan. Tuzilish jihatidan mazkur bob uch bo'limdan iborat bo'lib, har bir bo'limda arxeologiya fanining terminologik apparati genezisi o'ziga xos ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan.

Bobning **“Arxeologik terminlarning tarixiy genezisi va fan sifatida shakllanish bosqichlari”** nomli birinchi faslida arxeologiya fanining mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanish jarayonlari, uning asosiy tushunchalar tizimi va terminologik apparatining rivojlanish bosqichlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Ushbu bo'limda arxeologik terminlarning kelib chiqish manbalari, tarixiy shakllanish jarayonida yuz bergan leksik va semantik o'zgarishlar, shuningdek, ularning ilmiy muomalaga kirib kelish mexanizmlari ilmiy asoslangan holda ochib berilgan.

Arxeologiya fanining shakllanishi insoniyatning o'z tarixiga bo'lgan qiziqishi va moddiy madaniyat yodgorliklarini tizimli o'rganish ehtiyojidan kelib chiqqan. Terminologiya esa bu jarayonning ajralmas qismi bo'lib, u arxeologik izlanishlarning ilmiy natijalarini ifodalash, tasniflash va ilmiy muomalaga kiritishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tarixiy-lingvistik nuqtai nazardan arxeologik terminlarning genezisi ko'p asrlik taraqqiyot bosqichlarini o'z ichiga oladi, bunda tabiiy til rivoji, ilmiy maktablararo almashinuv va fanlararo integratsiya muhim o'rin tutadi.

Dastlabki bosqichlarda (XVIII asr oxiri – XIX asr birinchi yarmi) arxeologik terminlar tabiiy tildan olingan so'zlar yoki o'sha davrdagi tarixchilar, sayyohlar, etnograf va kolleksionerlar tomonidan tavsifiy xarakterdagi ifodalar orqali shakllangan³. Bu davrda ilmiy tasnifning yagona standartlari mavjud bo'lmaganligi sababli, bir xil obyekt turli hududlarda turlicha nomlar bilan atalgan⁴.

³ Фасмер, М. Этимологический словарь русского языка: в 4 т. / пер. с нем. и доп. О. Н. Трубачёва. – Т. 2. – М.: Прогресс, 1986. – 672 с. – С. 121.

⁴ Даль, В. И. Толковый словарь живого великорусского языка: в 4 т. – Т. 1. – М.: Русский язык, 1991. – 699 с. – С. 342.

XIX asrning ikkinchi yarmida arxeologiya mustaqil fan sifatida shakllanib, hududiy ilmiy maktablar (Fransiya, Germaniya, Rossiya va boshqalar) vujudga keldi. Bu maktablar o'z terminologik tizimlarini yaratdi, ammo ular orasidagi metodologik tafovutlar xalqaro miqyosda yagona termin standartlarining shakllanishiga ma'lum darajada to'sqinlik qildi. Shuningdek, moddiy madaniyat yodgorliklari yetarli darajada to'plangunga qadar tipologik yondashuv to'laqonli qo'llanilmagan⁵.

XX asr boshlaridan boshlab arxeologik ma'lumotlar bazasining kengayishi, qazish metodlarining takomillashuvi va tarixiy davrlashtirish tamoyillarining ishlab chiqilishi natijasida tipologik va davriy tasnif asosiy metodologik yo'nalish sifatida qaror topdi. Bu davrda xalqaro ilmiy hamkorlik, xalqaro kongresslar va ilmiy jamiyatlar faoliyati natijasida terminlar standartlashtirila boshladi. Ayniqsa, radiokarbon tahlili, stratigrafik yondashuv va madaniy qatlamlarni kompleks o'rganish terminologiyaning aniq va qat'iy bo'lishini talab qildi⁶.

Arxeologik topilmalar – mehnat qurollari, xo'jalik buyumlari, dehqonchilik mahsulotlari, to'qimachilik namunalari va san'at asarlari – nafaqat tarixiy davrlarni belgilashda, balki ularning lingvistik aksini aniqlashda ham manba sifatida xizmat qiladi. Shu bois, arxeologik terminlarning tarixiy genezisini o'rganish lingvistika, tarix, etnografiya va madaniyatshunoslik bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi.

Bizning tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, arxeologik terminlarning tarixiy genezisi bir necha bosqichli rivojlanish jarayoniga ega bo'lib, u arxeologiya fanining mustaqil ilmiy tizim sifatida shakllanishi bilan bevosita bog'liqdir. Dastlabki bosqichlarda terminlar xalq og'zaki ijodi, etnografik tavsiflar hamda qadimiy yozma manbalarda uchraydigan terminlar asosida shakllangan. Keyingi tarixiy davrlarda, ayniqsa XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida arxeologiya mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida rivojlanishi bilan bir qatorda, terminologiya tizimi rus va g'arbiy Yevropa tillaridan faol ravishda boyidi, xalqaro ilmiy muomalaga moslashgan.

Birinchi bobning ikkinchi bo'limi – “Umumadabiy tilning arxeologik terminologiya tizimiga ta'siri” – umumadabiy til va arxeologiya sohasidagi ixtisoslashgan leksikaning o'zaro ta'sir mexanizmlarini, ularning tarixiy shakllanish bosqichlarini hamda semantik transformatsiya jarayonlarini qamrab oladi. Ushbu bo'limda arxeologik terminologiya tarkibiga umumadabiy til birliklarining kirib kelishi, ularning terminologik tizim doirasida qayta semantizatsiyalanishi, ma'no torayishi yoki kengayishi holatlari, shuningdek, ilmiy diskurs sharoitida terminlarning ixtisoslashuvi va normativlashuvi jarayonlari tahlil etiladi. Tadqiqot jarayonida arxeologik terminlarning lingvistik adaptatsiyasi, sinonimik va variant shakllari, xalq tilidagi birliklar bilan o'zaro munosabatlari hamda ularning yozma va og'zaki ilmiy nutqda qo'llanish xususiyatlari aniqlanadi. Mazkur tahlillar asosida umumadabiy til va arxeologik terminologiya o'rtasidagi uzviy aloqadorlikning diaxron va sinxron ko'rinishlari ilmiy asosda yoritiladi.

⁵ Рыбаков, Б. А. Древности Новгорода и Пскова. – М.: Наука, 1964. – 239 с. – С. 89-90.

⁶ АН СССР. Археологическая карта России. – Л.: Наука, 1982. – 264 с. – С. 137-138.

Arxeologik terminologiya shakllanish jarayonida umumadabiy til manbalari muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Tarixan, ilmiy terminlar ko'pincha xalq tili leksik qatlamidan o'zlashtirilgan bo'lib, ular vaqt o'tishi bilan semantik torayish yoki kengayish, ma'no ixtisoslashuvi, metaforik siljish kabi jarayonlarga duch keladi. Bizning tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, umumadabiy til birliklarining arxeologik terminologiyaga kirib kelishi ikki asosiy yo'nalishda kechadi:

(1) *to'g'ridan-to'g'ri nomlash asosida*, (2) *metaforik yoki assotsiativ ko'chirish orqali*.

Tilshunos V.I.Dal o'z izohli lug'atida ko'plab so'zlarning tarixiy-semantik qatlamini ochib berib, ularning ixtisoslashuv jarayonlarini qayd etgan holda, "...всякое слово, вошедшее в язык науки, постепенно теряет часть своих бытовых значений"⁷, deya ta'kidlaydi. Bu fikr arxeologik terminlarning umumadabiy tilga mansub bo'lib, keyinchalik ilmiy kontekstda ixtisoslashganini tasdiqlaydi.

Shuningdek, M.Fasmer o'zining etimologik izohlarida ayrim ruscha terminlarning qadimgi ildizlarini qayta tiklab, ularning semantik evolyutsiyasini ko'rsatadi⁸. Bu, ayniqsa, turli davrlarda o'zbek arxeologik terminlariga kirib kelgan so'zlarning manbasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Arxeologiya fanining tarixiy bosqichlarida umumadabiy til birliklarining terminologiyaga kirishi, ko'pincha, yangi ilmiy tushunchalar paydo bo'lganda ularni ifodalashga tayyor so'z shaklining topilishi bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, dastlab xo'jalik faoliyati yoki kundalik hayot buyumlarini ifodalagan so'zlar (masalan, *sandal*, *o'roq*, *pichoq*) vaqt o'tishi bilan arxeologik kontekstda artefakt nomlari sifatida ishlatila boshlagan.

Arxeologik terminologiyaning to'rtinchi tematik guruhini insoniyat tarixining arxeologik davrlashtirishi va madaniy qatlamlarga ajratilishi bilan bog'liq terminlar tashkil etadi. Bu terminlar, bir tomondan, mehnat qurollarning ishlab chiqilishi bosqichlari asosida yaratilgan umumiy davr nomlarini bildirsa, ikkinchi tomondan, muayyan madaniyatlarning shakllanishi, tarqalish geografiyasi va topilmalari asosida nom olgan arxeologik madaniyat terminlarini o'z ichiga oladi⁹.

Tilshunos olimlarning kuzatuvlariga ko'ra, ilmiy terminologiya va umumadabiy til o'rtasida ikki tomonlama ta'sir mavjud bo'lib, ilmiy terminlar ma'lum sharoitlarda umumxalq tiliga ham kirib boradi¹⁰. Buning natijasida arxeologik terminlardan ba'zilar publitsistik va badiiy matnlarda ham ishlatiladi. Masalan, *qazishma*, *yodgorlik*, *qadimiy qatlam* kabi terminlar kundalik nutqda ham uchraydi, biroq ular ilmiy kontekstdagi aniq ma'nosidan farqliroq tarzda qo'llanadi.

Bizning tadqiqotimizda o'zbek, rus va ingliz tillaridagi umumadabiy leksemalarning arxeologik termin sifatida ishlatilish chastotasi va ma'no o'zgarishlari qiyosiy tahlil qilindi. Qiyoslash natijasida, o'zbek tilida ayrim

⁷ Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка. Т. 1. – М.: Русский язык, 1991. – С. 342.

⁸ Фасмер М. Этимологический словарь русского языка. Т. 2. – М.: Прогресс, 1986. – С. 121.

⁹ Shennan, Stephen (2002). Genes, memes and human history: Darwinian archaeology and cultural evolution. London: Thames & Hudson.

¹⁰ Рыбаков Б. А. Древности Новгорода и Пскова. – М.: Наука, 1964. – С. 89–90.

terminlarning semantik hajmi rus va ingliz tillaridagisiga nisbatan kengroq ekanligi aniqlandi.

1.2.1-jadval

Arxeologik davr nomlari va ularning terminologik-ekvivalent tahlili (ingliz, rus va o‘zbek tillari misolida tillari misolida)

Arxeologik davr nomlari			
Arxeologik termin (o‘zbekcha)	Ruscha ekvivalent	Inglizcha ekvivalent	Izoh (ilmiy tavsif)
Stone Age	Каменный век	Tosh asri	Eng qadimgi ishlab chiqarish vositalari – tosh qurollar keng qo‘llanilgan davr, insoniyat sivilizatsiyasining dastlabki ishlab chiqarish bosqichi.
Paleolithic	Палеолит	Paleolit	Qadimgi tosh davri (taxminan mil. avv. 2,5 mln – 10 000 yil), ovchilik va termachilik asosiy faoliyat bo‘lgan bosqich.
Mesolithic	Мезолит	Mezolit	O‘rta tosh davri (mil. avv. 10–7 ming yilliklar), Paleolit va Neolit oralig‘idagi o‘tish davri.
Neolithic	Неолит	Neolit	Yangi tosh davri; dehqonchilik, chorvachilik va doimiy yashash joylarining shakllanish davri.
Eneolithic	Энеолит	Eneolit	Mis-tosh davri, bunda tosh va mis qurollari birgalikda ishlatilgan; mehnat qurollarining murakkablashuvi boshlangan bosqich.
Bronze Age	Бронзовый век	Bronza asri	Mis va qalaydan bronza qurollar tayyorlangan davr (mil. avv. 3–1 ming yilliklar), metallurgianing rivojlangan bosqichi.
Iron Age	Железный век	Temir asri	Temir qurollarning keng tarqalgan davri (mil. avv. 1 ming yillikdan boshlab), ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda sezilarli o‘zgarishlar yuz bergan.
Acheulean	Ашель	Ashel davri	Erta paleolitning eng qadimgi bosqichlaridan biri (mil. avv. 800–100 ming yillar). Nom Fransiyadagi Saint-Acheul yodgorligidan olingan; Pleystotsen davrining Minder va Riess muzliklari oralig‘iga to‘g‘ri keladi.

Ushbu jadvalda turli arxeologik yodgorliklar asosida nom olgan madaniyatlar nomlari ham kiradi. Ular muayyan tarixiy hudud va davrlarda yashagan aholi hayot tarsi, mehnat faoliyatini, diniy marosimlarini va san’atini aks ettiradi:

1.2.2-jadval

Arxeologik madaniyatlar nomlari va ularning terminologik-ekvivalent tahlili (ingliz, rus va o‘zbek tillari misolida)

Arxeologik madaniyatlar nomlari			
Inglizcha ekvivalent	Ruscha ekvivalent	Arxeologik madaniyat nomi (o‘zbekcha)	Izoh (ilmiy tavsif)
Tripolie Culture	Триполье	Tripolye madaniyati	Eneolit davriga oid madaniyat bo‘lib, Ukraina va Moldovadagi qadimiy yodgorliklarga tegishli.
Kelteminar Culture	Келтеминар	Kelteminar madaniyati	Orolbo‘yi va Zarafshon oralig‘ida joylashgan ibtidoiy dehqonchilik madaniyati.
Djeitun Culture	Джейтунская	Jeytun madaniyati	Janubiy Turkmaniston hududida shakllangan ilk neolit davri madaniyati.
Comb Ceramic Culture	Культура художественной керамики	Badiiy keramika madaniyati	Shimoliy Yevropada tarqalgan, idishlarda tirnoqli yoki taroqli naqshlar ishlangan kulolchilik an‘analari.
Catacomb Culture	Катакомбная культура	Katakomb madaniyati	Ukraina va Janubiy Rossiyada tarqalgan, bronza davriga oid o‘ziga xos dafn urf-odatlariga ega madaniyat.

Yuqoridagi tahlillar natijasida biz umumadabiy tilning arxeologik terminologiya tizimiga ko‘rsatgan ta‘sirini bir nechta asosiy yo‘nalishda izohlashimiz mumkin. Avvalo, umumadabiy birliklarning ilmiy diskursga kirishi jarayonida ular ko‘pincha semantik torayish yoki kengayish hodisasiga uchraydi. Bunday semantik transformatsiya ilmiy muloqot ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, terminologiya tizimida aniqlik va ixtisoslashuv darajasini oshiradi. Bu holatni V.I.Dalning “Толковый словарь живого великорусского языка” asarida keltirilgan ayrim so‘z birliklari misolida ham kuzatish mumkin¹¹.

Ikkinchidan, ayrim arxeologik terminlar ilmiy matnlarda ham, umumxalq nutqida ham parallel ishlatiladi. Bu esa ayrim hollarda ma‘no nomuvofiqliklarini keltirib chiqarishi, ya‘ni terminologik aniqlikning pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin. M.Fasmer o‘zining “Этимологический словарь русского языка” asarida ayrim tarixiy-termin birliklarining ma‘nodagi o‘zgarishlarini izohlar ekan, bunday nomuvofiqliklarning til taraqqiyoti va ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog‘liqligini ta‘kidlaydi¹².

Uchinchidan, olib borgan qiyosiy tahlillarimiz shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tilidagi umumadabiy kelib chiqishga ega bo‘lgan ba‘zi terminlar ingliz va rus tilidagi ekvivalentlariga nisbatan kengroq semantik diapazonga ega. Bunday farqlar, bizningcha, tilning ichki rivojlanish qonuniyatlari, tarixiy-madaniy kontekst va lingvomadaniy omillar bilan izohlanadi. Masalan, V.A.Ribakov

¹¹ Даль В. И. Толковый словарь живого великорусского языка. Т. 1. – М.: Русский язык, 1991. – С. 342.

¹² Фасмер М. Этимологический словарь русского языка. Т. 2. – М.: Прогресс, 1986. – С. 121.

tomonidan o'rganilgan "Novgorod va Pskov qadimiy yodgorliklari"¹³ asarida ayrim terminlarning mintaqaviy talqinlari va semantik kengayish imkoniyatlari alohida qayd etilgan.

Shunday qilib, umumadabiy tilning arxeologik terminologiyaga ta'siri ikki tomonlama xarakter kasb etadi: bir tomondan, u terminologiya tizimini boyitadi va ekspressivlik darajasini oshiradi, ikkinchi tomondan esa, ilmiy muloqotda noaniqlik va polisemantik holatlar yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu jarayonni izchil nazorat qilish va terminologik me'yorlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, arxeologiya fanining til madaniyati darajasini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

"Arxeologik terminologiya shakllanishida xalq terminologiyasining o'rni" deb nomlangan uchinchi bo'limda, arxeologik terminologiyani shakllantirish hamda boyitish jarayonida sheva leksikasi va og'zaki nutq unsurlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, shevalar orqali yangi terminlar yaratish imkoniyati mavjud bo'lishiga qaramay, ularning amaliy ta'siri nisbatan cheklangan. Jahon tajribasida muayyan etnomadaniy hududlarga xos bo'lgan leksik birliklarning ilmiy muomalaga kiritilgan holatlari kuzatilgan bo'lsa-da, ingliz va rus tillarida bu jarayon keng ko'lamli tus olmagan.

Arxeologik terminologiya shakllanishida sheva leksikasi va xalq terminlari muhim leksik manbalardan biri sifatida alohida o'rin egallaydi. Bu jarayon, avvalo, xalq tilida asrlar davomida saqlanib kelgan va ma'lum bir etnomadaniy muhitda shakllangan leksik birliklarning ilmiy muomalaga kirib borishi bilan izohlanadi. V.I.Dal sheva so'zlarining mazmuniy boyligi haqida so'z yuritarkan, ularning "mahalliy nutq madaniyatini aks ettirish va milliy tilning tabiiy boyligini saqlashdagi beqiyos o'rni"ni ta'kidlaydi¹⁴. M.Fasmer esa ayrim terminlarning kelib chiqishini tahlil qilarkan, ko'plab arxeologik terminlar aynan dialektal qatlamdan kelib chiqqanini lingvistik dalillar asosida isbotlaydi¹⁵.

Jahon tajribasida, xususan, B.A.Ribakov tadqiqotlarida slavyan xalqlari arxeologik leksikasining shakllanishida xalq tilidagi nomlash an'analari va sheva birliklarining roli qayd etiladi¹⁶. Shunga qaramay, xalq tilidan ilmiy muomalaga o'tgan birliklar soni har doim ham ko'p bo'lavermaydi. Bu holat, bir tomondan, ilmiy terminologiya tizimining aniqlik va barqarorlik talablariga, ikkinchi tomondan, dialektal so'zlarning chegaralangan hududiy qo'llanish doirasiga bog'liqdir.

- qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida sheva va xalq leksikasidan kirgan ayrim terminlar semantik kengligi va obrazlilik bilan ajralib turadi. Biroq rus va ingliz tillarida bu jarayon nisbatan cheklangan ko'lamda kechgan bo'lib, ko'proq tarixiy-etnoSheva leksikasi, ayniqsa, moddiy madaniyat unsurlariga oid terminlarni aniqlashda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi;

¹³ Рыбаков Б. А. Древности Новгорода и Пскова. – М.: Наука, 1964. – С. 89–90.

¹⁴ Даль В. И. Толковый словарь живого великорусского языка. Т. 1. – М.: Русский язык, 1991. – С. 342.

¹⁵ Фасмер М. Этимологический словарь русского языка. Т. 2. – М.: Прогресс, 1986. – С. 121.

¹⁶ Рыбаков Б. А. Древности Новгорода и Пскова. – М.: Наука, 1964. – С. 89–90.

- dialektal birliklarning ilmiy muomalaga kirib borishi ko‘pincha terminologik standartlashtirish jarayonida qisqarib boradi;

- qiyosiy-tipologik yondashuv xalq tilidan kirgan terminlarning semantic diapazonini aniqlash va ularni boshqa tillardagi ekvivalentlar bilan solishtirish imkonini beradi.

Rus va ingliz tillari tajribasiga murojaat qilinganda, Ribakov¹⁷ ning tadqiqotlari hamda zamonaviy terminologik izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, dialektal unsurlar ilmiy terminlar tizimiga kirib kelgan hollarda ham ular odatda tor sohalarda, mintaqaviy yoki etnografik kontekstda faoliyat ko‘rsatadi, ammo keng qamrovli xalqaro terminologiyada yetakchi o‘rin egallamaydi.

Tadqiqotchi sifatida mening mulohazam shuki, arxeologik terminlarning shakllanishida sheva va xalqona leksikaning bevosita ulushi miqdoran katta bo‘lmasa-da, ularning sifat jihatidan ahamiyati sezilarli. Chunki bunday birliklar o‘zida milliy-madaniy kodni, tarixiy identifikatsiyani va hududiy xotirani aks ettiradi. Shu bois, ularni ilmiy terminologiyada saqlab qolish va ehtiyotkorlik bilan integratsiya qilish nafaqat til boyligini, balki arxeologik merosni ilmiy-nominal darajada ham asrashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Arxeologik terminologiyada o‘zlashma qatlamning jarayonlashuvi”** deb nomlanib, unda xorijiy tillar, xalqaro leksika hamda til ichidagi so‘z yasash jarayonlarining arxeologik terminlar tizimi shakllanishiga ta’siri kompleks tahlil qilinadi. Bob doirasida o‘zlashma birliklarning terminologik tizimlarga ko‘p bosqichli integratsiya mexanizmlari aniqlanadi hamda arxeologik realiyalar nomlanishida xalqaro va mahalliy elementlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir hamda uyg‘unlashuv jarayonlari ilmiy asosda yoritiladi. Shu bilan birga, arxeologik terminologiyaning boyishida lingvistik kontaktlar, madaniy almashinuv va ilmiy hamkorlikning o‘rni ham alohida tahlil qilinadi.

Ikkinchi bobning birinchi bo‘limi **“Arxeologik terminologiyada internatsional terminlarning integratsiya mexanizmlari”** deb nomlanib, u dunyoning turli mamlakatlarida ilmiy arxeologik an’anaga singib ketgan barqaror o‘zlashmalarning tizimli tahliliga bag‘ishlangan. Tadqiqot jarayonida arxeologik terminlarning muhim bir qatlamini tashkil etuvchi, masalan, paleolit, neolit, mezolit, eneolit (*tarixiy davrlar nomlari*), dolmen, mengir, kurgan, styupa (*yodgorlik turlari*), amfora, fibula, idol (*artefaktlar*) kabi birliklarning xalqaro ilmiy muomalada keng qo‘llanilishi va deyarli tarjimasiz ishlatilishi alohida ta’kidlanadi. Mazkur terminlar xalqaro xususiyatga ega bo‘lib, ko‘plab milliy tillarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita, xususan, o‘zbek ilmiy leksikoniga rus tili vositachiligida kirib kelgan.

Ayniqsa, murakkab ilmiy nomlar shakllanishida faol ishtirok etuvchi yunon-lotin kelib chiqishidagi morfemalar (*arxeo-*, *paleo-*, *nekro-*, *-lit*, *-logiya*)ning terminotvor jarayonidagi roli va produktivligi alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Shu bilan birga, o‘zlashgan birliklarning grafik va fonetik moslashtirish jarayonlari ham tahlil qilinadi. Masalan, yozuvdagi variantlilik (**tel/tell**)ning keyinchalik

¹⁷ O‘sh manba.

yagona “tell” shaklida normallashtirilishi lingvistik standartlashtirish jarayonining tipik namunasidir.

Arxeologik terminologiya tarixiy taraqqiyot jarayonida ko‘p qatlamli va ko‘p manbali tizim sifatida shakllangan bo‘lib, uning muhim qismini xalqaro o‘zlashmalar tashkil etadi. Xalqaro terminlar, odatda, qadimgi yunon va lotin tilidagi ildizlardan kelib chiqqan bo‘lib, ular arxeologik fan tilida *universal muloqot vositasi* vazifasini bajaradi. Masalan, *paleolit, mezolit, neolit, eneolit* kabi tarixiy davrlar nomlari, *dolmen, menhir, kurgan, stupa* kabi yodgorlik turlari hamda *amfora, fibula, idol* kabi artefakt nomlari deyarli barcha milliy arxeologiya adabiyotida tarjimasiz qo‘llanadi.

2.1.1-jadval

Arxeologik terminlarning ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi terminologik-taqqoslama tahlili

Arxeologik terminlar: inglizcha-ruscha-o‘zbekcha taqqoslamasi		
Inglizcha termin	Ruscha ekvivalent	O‘zbekcha izohi
Pick	пик	Bolta-ketmon – dastali uchli tosh asbob, qazish ishlarida qo‘llaniladi.
Trench	траншея	Xandaq – arxeologik qazish jarayonida qo‘llaniladigan uzun shakldagi chuqurlik.
Flare-shaped pot	кlesh	Qo‘ng‘iroqsimon idish – bronza davriga oid yassi og‘izli idish turi.
File (lime)	лимас	Limas – metall buyumlarni silliqlash uchun ishlatiladigan asbob.
Retouch	ретуш	Qayta ishlash – tosh qurollarga mayda texnik ishlov berish usuli.
Retoucher	ретушер	Qayta ishlovchi – retush berish uchun ishlatiladigan yumaloq tosh asbob.
Levallois technique	техника Леваллуа	Levalua texnikasi – toshni oldindan shakllantirib, undan chip ajratib olish usuli.
Acheulean	ашель	Ashel madaniyati – Erta paleolit davriga oid tosh asboblari madaniyati.
Aurignacien	ориньяк	Aurinyak madaniyati – Yuqori paleolit davriga oid san’at yodgorliklari madaniyati.
Garvettian	граветт	Gravettiy madaniyati – Yuqori paleolit davriga mansub o‘tkir uchli nayza madaniyati.
Solutrean	солютре	Solyutre madaniyati – toshga yuqori darajada ishlov berilgan qurollar madaniyati.
Magdalenian	мадлен	Madlen madaniyati – o‘ymakorlik san’ati bilan ajralib turuvchi yuqori paleolit madaniyati.
Tardenoisian	тарденуаз	Tardenuaz madaniyati – mezolit davriga xos o‘tish bosqichi madaniyati.
Mousterian	мустье	Mustye madaniyati – neandertal insonlari yashagan davrga mansub tosh asboblari madaniyati.
Chaâtelperronian	шательперрон	Shatelperron madaniyati – yuqori paleolitning o‘tish bosqichiga oid madaniyat. Shatelperron madaniyati – bu Fransiyada aniqlangan ibtidoiy insonlarning madaniy bosqichi, Erta Yuqori Paleolit davrining dastlabki arxeologik bosqichlaridan biridir.

Izoh: Ushbu terminlar ilmiy tilda qo‘llanishi uchun tarjima qilinmasdan ko‘pincha transliteratsiya shaklida saqlanadi. O‘zbek ilmiy adabiyotlarida bu terminlar ko‘pincha ruscha shakli asosida ishlatilgan:(masalan, Ашельская культура - Ashel madaniyati deb).

Leksik o'zlashtirmalar arxeologik terminologiya shakllanishida muhim rol o'ynagan bo'lib, ular yuqori ixtisoslashgan terminlarning qariyb 7 foizini tashkil etadi. Ayniqsa, bu holat paleolit va neolit davrlari arxeologiyasida yaqqol namoyon bo'ladi. Mazkur davrga oid terminlar ko'pincha G'arbiy Yevropa fanida shakllanib, boshqa tillarga o'zgarishsiz yoki qisman fonetik va morfologik moslashuv orqali kirib kelgan. Bunday integratsiyaning asosiy sababi ekstralingvistik omillar bilan bog'liq: XIX asrda aynan Yevropa mamlakatlari – Fransiya, Angliya, Germaniya – tosh davri madaniyatlarini tizimli ravishda o'rganishni boshlab bergan va bu yo'nalishda ilmiy ustivorlikni qo'lga kiritgan. Natijada, eng qadimgi madaniyat qatlamlariga oid topilmalar bilan bog'liq terminlar: Aurignacien, Magdalenien, Gravettien, Solutr en, Ch atelperronien singari terminlar umumxalq leksikasiga emas, aynan xalqaro ilmiy diskursga nisbatan kiritilgan bo'lib, ular ilmiy muomalada internatsional birlik sifatida mustahkam o'nashgan¹⁸.

Shuningdek, bu terminlarning ko'pchiligi toponimik kelib chiqishga ega bo'lib, ularning semantik yadrosi topilmaning ilk aniqlangan joy nomi bilan chambarchas bog'langan: masalan, La Madeleine, Aurignac, Solulutr e, Ch atelperron va boshqalar. Bunday holat leksik o'lashtirishning to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirishning to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirish shakliga misol bo'la oladi¹⁹.

Shuni alohida qayd etishimiz kerakki, xalqaro terminlarning milliy tilga moslashuvi jarayonida grafik normallashtirish (*tel* → *tell*) va fonetik moslashtirish o'ziga xos til ichki qonuniyatlariga bo'ysunadi. Bizning ilmiy qarashlarimizga ko'ra, ushbu jarayonlar nafaqat terminologiyani boyitadi, balki ilmiy-texnik tafakkurni standartlashtirishga, turli millatlar olimlari o'rtasida samarali axborot almashinuvi imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Bobning ikkinchi bo'limi **“Kalkalash va semantik o'zlashtirishning lingvistik usullari”** deb nomlanib, mazkur bo'lim begona til elementlarining milliy terminologiyaga integratsiyalanish mexanizmlaridan biri – kalkalash jarayoniga bag'ishlanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, arxeologiya fanining dastlabki rivojlanish bosqichlarida lotincha terminlarni so'zma-so'z tarjima qilish orqali “shaffof” terminlar yaratishga urinishlar kuzatilgan. Masalan, lotin tilidagi urna terminini rus tiliga праховица yoki пепельница shaklida tarjima qilish taklif etilgan, biroq bunday kalkalar grammatik noqulaylik va uslubiy og'irlik sababli keng qo'llanish imkoniyatiga ega bo'lmagan.

Shaxsiy ilmiy mulohazamizcha, kalkalash jarayoni til boyligini oshirish bilan birga, terminologik tizimning izchilligini ta'minlashda ehtiyotkor yondashuvni talab etadi. Zero, har qanday yangi birlik faqatgina lingvistik moslashuv va amaliy qo'llanish samaradorligi sinovidan muvaffaqiyatli o'tgan taqdirdagina ilmiy leksikonda mustahkam o'rin egallashi mumkin. Shu bilan birga, mazkur bo'limda semantik o'zlashmalar chuqur tahlil qilinadi. Bu holatda milliy tildagi mavjud so'zlar xorijiy til terminlari ta'sirida qo'shimcha yoki yangi semantik yuklama oladi. Masalan, ingliz tilidagi *ritual* terminining ta'sirida o'zbek tilidagi *marosim*

¹⁸ Фасмер М. Этимологический словарь русского языка. Т. 4. – М.: Прогресс, 1987. – С. 312.

¹⁹ Даль В. И. Толковый словарь живого великорусского языка. – М.: Русский язык, 1991.

soʻzining maʼnosi kengaygan va endilikda ilmiy tavsif doirasida ham, yaʼni rasmiy-ritual holatlar kontekstida ham qoʻllanila boshlagan. Umuman olganda, kalkalash ham, semantik oʻzlashuv ham milliy terminologik tizimlarni sezilarli darajada boyitgan va tushunchalarning xalq uchun tushunarli boʻlishini taʼminlagan, biroq ilmiy amaliyotda ularni sistematik tanlash va yagona shaklga keltirish zarurligi mavjud.

Ushbu boʻlimda begona til elementlarini milliy terminologiyaga kiritishning turli mexanizmlari, xususan, kalkalash usuli yoritildi. Bizning kuzatishlarimiz shuni koʻrsatadiki, arxeologiya fanining dastlabki bosqichlarida lotincha terminlarni soʻzma-soʻz tarjima qilish orqali “shaffof” terminlar yaratishga urinishlar keng tarqalgan boʻlgan. Masalan, lotin tilidagi *urna* terminini rus tiliga *праховица* yoki *пепельница* tarzida tarjima qilish taklif etilgan. Biroq bunday kalkalar grammatik noqulaylik va uslubiy ogʻirlik sababli ilmiy amaliyotda keng qoʻllanmay qolgan.

Tahlilimiz natijasida kalkalashning asosiy turlari – toʻliq, qisman va strukturaviy kalkalash – aniqlanib, ularning terminologik tizimga taʼsiri baholandi. Xususan, ayrim hollarda terminologik dubletlar, yaʼni bir tushuncha uchun ikki xil terminning parallel qoʻllanilishi holati yuzaga kelgani aniqlandi. Bizning fikrimizcha, bunday dubletlar ilmiy nutqda maʼno aniqligi va standartlashtirish nuqtayi nazaridan muammolar tugʻdiradi. Shu sababli, terminlarni normallashtirish jarayonida kalkalash yoʻli bilan kirgan birliklarning semantik va uslubiy mosligini sinchiklab baholash zarur.

Mazkur masalaga doir taniqli terminolog D.S.Lotte “формы терминов должны быть языково адекватными, по возможности удобными и гибкими”²⁰, deya taʼkidlaydi. Bu fikr arxeologik terminologiyada semantik-grammatik moslashuvning ahamiyatini koʻrsatadi.

Kalkalash jarayonining asosiy sababi – qarz tushunchalariga mos keladigan tayyor terminlarning yoʻqligi hamda bevosita qarzga olishning lingvistik qiyinligidir. Ammo baʼzan bunday yondashuv salbiy natija beradi. Masalan, fransuz tilidan kalkalangan “*jandarma shapkasi koʻrinishidagi platforma*” termini kulgili va qiyin tushunarli boʻlgani sababli tanqid qilingan²¹.

Ushbu tadqiqot doirasidagi kuzatishlarimiz natijasida shuni aytishimiz mumkinki, arxeologik terminlarni kalkalash jarayonida soʻzma-soʻz tarjimadan koʻra semantik moslashtirish ustuvor boʻlishi zarur. Chunki madaniy-maʼnaviy yuklamasi kuchli terminlarda oddiy nusxa koʻchirish ilmiy aniqlikka putur yetkazadi. Shu bois biz kalkalashni statik model emas, balki kontekstga moslashuvchi dinamik jarayon sifatida baholaymiz. Bu yondashuv tilning tabiiy rivojlanish qonuniyatlariga mos kelib, ilmiy muloqotda aniq va mos keladigan terminologiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Bobning uchinchi qismi “**Xalqaro termin elementlari hamda nominatsiya jarayoni**” deb nomlanib, arxeologik terminologiyaning milliy tillar doirasida shakllanish jarayonlari bevosita tahlil qilingan. Unda asosiy eʼtibor tilning ichki

²⁰ Лотте Д. С. Основы построения научно-технической терминологии. – М.: Изд-во АН СССР, 1961. – С. 53.

²¹ Кабакчи В. В. Теория и практика перевода терминологии. – СПб.: СПбГУ, 2008. – С. 67.

imkoniyatlari – affiksatsiya, kompozitsiya, so‘z yasash modellari hamda morfemalarning semantik salohiyatiga qaratilgan. Bunday yondashuv arxeologik terminologiyada nafaqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashmalarga, balki milliy-lisoniy asosda yaratilgan neologizmlarga ham alohida o‘rin berilganini ko‘rsatadi.

Mazkur faslda arxeologik terminlarni shakllantirish jarayonida milliy tillarning ichki morfologik imkoniyatlaridan foydalanish masalasi atroflicha tahlil qilinadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashmalardan farqli o‘laroq, bu yerda affiksatsiya, asos qo‘shish (kompozitsiya) va boshqa til ichidagi so‘z yasash usullari asosiy diqqat markaziga olinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, milliy-lisoniy resurslar orqali yaratilgan neologizmlar arxeologik terminlarning umumiy korpusida o‘rtacha 7 foiz atrofida bo‘lib, bu ko‘rsatkichning pastligi arxeologiyaning tayyor nomlarga tayanish xususiyati bilan izohlanadi. Misol sifatida, arxeologik madaniyat egalari nomlarini yasash modellari keltiriladi. Rus tilida – трипольцы, азильцы kabi birliklar –цы qo‘shimchasi orqali hosil qilinadi; o‘zbek tilida – jarqo‘tonlar shaklida –lar affiksi yordamida yaratiladi; ingliz tilida esa – Tripillians, Azilians kabi shakllar uchraydi. Bu parallel modellar xalqaro miqyosda morfologik sxemalarning nisbiy universalligini ko‘rsatadi²².

Bundan tashqari, asos qo‘shish (*kompozitsiya*) usuli ham samarali qo‘llanadi. Ingliz tilida fieldwalking, tomb-chamber kabi terminlar mavjud bo‘lsa, o‘zbek tilida ham қазбаёртки (*“qazilma joyi”*) kabi sanchiq so‘zlardan tashkil topgan birliklar ishlatiladi. Bu jarayon milliy tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanish orqali yangi ilmiy birliklarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida ta’kidlanishicha, til ichidagi strategiyalar tarqalish doirasi cheklangan bo‘lsa-da, terminologik tizimlilik, milliy identiklik va ilmiy nutqning madaniy-lingvistik moslashuvini ta’minlashda beqiyos ahamiyatga ega. Tadqiqot yakunida zamonaviy arxeologik terminologiya to‘rt asosiy mexanizmning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanayotgani aniqlanadi: *xalqaro o‘zlashmalar, kalkalash, semantik qayta talqin, morfologik model asosida yaratish*.

Ushbu mexanizmlarning qo‘llanish nisbati tilning xususiyatlari, tarixiy sharoit va ilmiy maktabning metodologik yo‘nalishiga bog‘liq bo‘ladi²³. Xalqaro terminlar global ilmiy muloqotda yagona uslubni ta’minlasa, milliy modellar madaniy o‘ziga xoslik, tuzilmaviy ravshanlik va uslubiy moslashuvchanlikni kafolatlaydi. Shuning uchun terminlarni tanlash va ularni standartlashtirish jarayonida ilmiy asoslangan, muvozanatli yondashuv zarur bo‘lib, bu xalqaro hamkorlikni ham, milliy lingvomadaniy moslikni ham ta’minlashi lozim.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“Arxeologik terminologiyaning leksik-semantik xususiyatlari”** deb nomlanib, arxeologik terminlar tizimining ichki tuzilishi hamda semantik qatlamini kompleks o‘rganishga bag‘ishlangan. Ushbu bobda tushunchalar tipologiyasining ierarxik tuzilishi, sinonimiya, polisemantik hodisalar, omonimiya va antonimiya kabi til birliklari, shuningdek, soha terminologiyasiga xos bo‘lgan variantlilik hamda terminologik dubletlik masalalari ilmiy tahlil etilgan.

²² Петров А.А. Морфологические модели в научной терминологии. – СПб.: ЛГУ, 2016. – С. 123.

²³ Кузнецова Н. Развитие терминологии под влиянием лингвистических и культурных факторов. – Москва: МГУ, 2017. – С. 150.

Uchinchi bobning birinchi bo‘limi “**Arxeologik terminlarning leksik-semantik tipologiyasi**” deb nomlanib, terminlarning tushunchaviy tuzilishi va ularning ierarxik aloqalarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, arxeologik terminologiya o‘z ichida aniq tasniflangan va ifodali tizimga ega bo‘lib, tushunchalar umumlashtirish darajasiga qarab joylashadi hamda giperonim-giponim munosabatlariga asoslangan daraxtsimon tuzilmani tashkil etadi.

Arxeologik terminologiyaning o‘ziga xosligi shundaki, u nafaqat an’anaviy tasniflar – masalan, “*qo‘rg‘onlar*”, “*qadimiy shaharchalar*”, “*ibtidoiy maskanlar*” – bilan ishlaydi, balki zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosidagi yangi tushunchalar, masalan, “*proto-shahar*” va “*domestikatsiya*”, bilan birgalikda qo‘llanadi. Bu holat arxeologik terminologiyani umumxalq leksikasi bilan bog‘liq bo‘lishiga qaramay, mustaqil ilmiy qatlam sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Arxeologik terminologiyada uyerarxik semantik munosabatlarning eng murakkab ko‘rinishlaridan biri – besh bosqichli tuzilmadir. Bunda giperonim sifatida *arxeologik davriylanishtirish* (археологическая периодизация – archaeological periodization) tushunchasi maydonga chiqadi. Unga quyidagi asosiy tarixiy davrlar kiradi: *tosh davri* (каменный век – Stone Age), *bronza davri* (бронзовый век – Bronze Age), *temir davri* (железный век – Iron Age).

Arxeologik terminologiyada dafn marosimlari (погребальные обряды – burial rites) tizimi giponimik munosabatlarga boy. Masalan, “dafn turi” (тип захоронения – type of burial) giperonimi ostida ingumatsiya (ингумация – inhumation) va krematsiya (кремация – cremation) kabi giponimlar mavjud bo‘ladi. Ushbu guruhlar o‘z navbatida yanada torroq giponim bo‘laklarga bo‘linadi: qabr turi bo‘yicha yerosti qabri (подземная могила – underground grave) va yodgorlikli qabr (могила с конструкцией – constructed grave); qafn shakli bo‘yicha katakomba dafni (катакомбное захоронение – catacomb burial) va yog‘ochli qabr (древесное погребение – wooden burial); skelet holati bo‘yicha burishgan skelet (согнутое положение – flexed position) va diagonal holat (диагональное положение – diagonal position); yo‘nalishi bo‘yicha esa g‘arbiy (западная ориентация – western orientation), sharqiy (восточная ориентация – eastern orientation) va meridional (меридиональная ориентация – meridional orientation) giponimlar ajratiladi. Shu tarzda tashkil etilgan giponimik iyerarxiya arxeologik dafn terminlarining leksik-semantik tuzilishini tizimli va ilmiy asoslangan shaklda ko‘rsatadi.

Tadqiqotimiz natijalari shuni ko‘rsatadiki, arxeologik terminlar murakkab, ko‘p qatlamli va iyerarxik tuzilishga ega bo‘lib, ular sinonimiya, antonimiya, polisemiya va giponimiya orqali o‘zaro bog‘lanadi. Terminologik tizim ochiq va dinamik bo‘lib, fanning rivojlanishi bilan yangi birliklar kiritiladi, mavjudlari esa semantik jihatdan torayadi. Giperonim-giponim munosabatlarning to‘liq shakllanmaganligi va ayrim tushunchalarning sinonimlarsizligi tizimning nazariy barqaror emasligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, arxeologik terminlarning leksik-semantik tipologiyasini tadqiq etish orqali biz ilmiy aniqlikni oshirish va tilshunoslik hamda tarixiy fanlarda yangi konseptual yondashuvlarni rivojlantirishga hissa qo‘shishga erishdik.

Uchinchi bobning ikkinchi bo‘limi “**Arxeologik terminologiyada sinonimiya, variantlik va terminologik takrorlar**” deb nomlanib, bir xil tushuncha uchun bir nechta terminlarning mavjudligi va ularning ilmiy-terminologik munosabatlarini tahlil

qilishga bag'ishlangan. adqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, arxeologik til sinonimiyadan xoli emas va ma'lum darajada sistemali xususiyatga ega. Bu holat bir nechta omillar bilan izohlanadi: terminologiya turli manbaalardan, xususan, turli tillardan rivojlangan bo'lib, o'zlashgan va kalkalangan terminlarning bir vaqtda mavjud bo'lishiga olib kelgan. Masalan, "paleolit" va "tosh davri", "neolit" va "yangi tosh davri" kabi terminlar, o'zbek tilida esa bu juftliklar "neolit" va "yangi tosh davri" shaklida saqlanib qolgan.

Shuni ham kuzatdikki, rus tilida ishlatiladigan terminlarning ba'zilarini boshqa tillardan olingan shakllar bilan almashtirish urinishlari har doim ham terminologik barqarorlikka olib kelmaydi. Masalan, менгир o'rniga стоячий камень, нуклеус o'rniga кремневая глыба, стержень yoki клин terminlari taklif etilgan, ammo ular ilmiy doirada barqaror mustahkamlanmagan²⁴. Shunga qaramay, ruscha terminlarning ichki sinonimik tarmog'i anchayin keng. Bunga quyidagi misollarni keltirish mumkin: пепелище – огнище – кострище – костёр (olov o'chog'i), баба каменная – болван – истукан – мамая – балбал (to'rtburchak haykallar), отщеп – откол – осколок – отбивок (bo'lak, parcha, chiplama), погребальный инвентарь – погребальная обстановка (dafn buyumlari), долгий курган – длинный курган (cho'zilgan qo'rg'on), вставное – вводное – впускное погребение (ichki dafn shakllari), отжим – надавливание (bosish texnikasi)²⁵. Bunday sinonimik variantlar ilmiy tushunchaning aniqligi va termin hosil bo'lishi mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi. Masalan, murdani yoqish tushunchasi matnda turli usullarda ifodalanadi: qabrda kuydirilgan jasadlar, kuydirilgan qabr, goreletlar, o'lik jasadlarni yoqish, jasadlarni yoqish, murdani yoqish. Har bir variant mavjud konsepsiyani har xil aspektdan yoritadi, bu esa termin tanlashda ilmiy aniqlik va uslubiy yondashuv talab qiladi.

Bizning tadqiqotimiz arxeologik terminologiyaning leksik-semantik tuzilishini tizimli ravishda o'rganib, bir qator yangi jihatlarni aniqlash imkonini berdi. Terminlar o'rtasidagi sinonimiya va giponimik munosabatlar ularning semantik yaqinligi, tarixiy va geografik kontekstlar bilan bog'langan holda tahlil qilindi, bu esa terminologik tizimning ko'p qatlamli va dinamik xarakterga ega ekanligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, mikrotuzilmalar radiasion (gorizontal) va iyerarxik (vertikal) semantik model elementlarini birlashtirishi aniqlanib, arxeologik terminlarning multidimensional tipologiyasi yoritildi.

Tadqiqot davomida murakkab terminlarning atributiv komponentlari, masalan, mehnat qurollari, dafn turlari va yodgorliklar tasnifida giponimik va atributiv elementlar orqali aniq semantik farqlanishi namoyon bo'ldi. Bu esa arxeologik terminlarning leksik-semantik tipologiyasini rivojlantirish va ularni ilmiy hamda amaliy sohalarida dinamik, moslashuvchan tizim sifatida tahlil qilish imkoniyatini yaratdi. Shu tariqa, tadqiqot arxeologik terminologiya sohasida yangi konseptual yondashuvlarni aniqlash va yoritishda muhim ilmiy natijalar berdi.

Bobning uchinchi fasli, "**Arxeologik terminologiyada ko'p ma'nolilik, omonimiya va antonimiya**", murakkab semantik hodisalarni tahlil qilishga qaratilgan. Polisemiya – ya'ni bir terminning bir nechta ma'noga ega bo'lishi – arxeologik leksikaning tipik xususiyati hisoblanadi. Ko'pincha bu holat umumiy va

²⁴ Клейн Л.С. Археологическое мышление. – СПб.: Евразия, 2004. – С. 221.

²⁵ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – С. 188.

maxsus ma'nolarning kesishishidan kelib chiqadi: so'z umumxalq leksikasidan ilmiy tilga o'tganda, uning ma'nosi qat'iy belgilanmaydi. Masalan, "kompleks" termini arxeologik topilmalar majmuasi, me'moriy yodgorliklar majmuasi yoki hatto psixologik holat ma'nolarida ishlatilishi mumkin. Bu ko'pma'nolilik aniq tushuntirishni murakkablashtiradi va kontekstga bog'liq.

Ko'pma'nolilik (polisemiya). Ko'pma'nolilik hodisasi bir terminning kontekstga qarab turli semantik yukga ega bo'lishi orqali yuzaga chiqadi. Arxeologik terminlar orasida bu holat, ayniqsa, ob'ekt va xususiyatni bildiruvchi birliklarda ko'proq uchraydi. Masalan: *plastinka* (пластинка – plate) termini kontekstga qarab: asbobning shakli (*katta tekis yassi tosh*), material turi (*yassi qoplama elementi*), yoki ishlov berilgan tayyor buyum ma'nosida ishlatiladi. Bu termin semantik jihatdan yadroga ega birlik sifatida ko'riladi, lekin har bir qo'llanilishida mikrosemantik farq mavjud. Bunday holat *retush* (ретушь – retouch) terminida ham kuzatiladi: u bir tomondan texnologik jarayonni, ikkinchi tomondan yakuniy natijani bildiradi, ya'ni bu yerda dinamik va statik ma'no qatlamlari mavjud. Ko'pma'nolilik terminologik tizimda matn kontekstidan ajratib bo'lmaydigan ma'no aniqligini talab qiladi²⁶.

Omonimiya. Omonimiya hodisasi esa tashqi shakli bir xil, ammo mazmun jihatidan mutlaqo boshqa tushunchalarni ifodalovchi terminlar o'rtasida yuzaga keladi. Omonimik terminlar, ayniqsa, xalq tilidan olingan yoki boshqa sohalarda ham faol ishlatiladigan birliklar doirasida uchraydi. Masalan: Sektor (сектор – sector): arxeologik qazilma maydonining bo'lagi (archaeologik ma'noda), geometrik shakl sifatida (matematik ma'noda), stoyanka (стоянка – parking): arxeologik kontekstda – qadimiy odamlar manzilgohi, zamonaviy rus tilida – transport vositasi to'xtaydigan joy. Bunday holatlarda terminologik o'ziga xoslikni saqlab qolish uchun kontekstual tafsif muhim bo'ladi, ya'ni omonimiya stilistik, mavzuli va kontekstual darajada hal qilinadi²⁷.

Antonimiya. Terminologik tizimdagi antonimiya esa, aksincha, qarama-qarshi tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy semantik bog'liqlikni aks ettiradi. Bu hodisa sinonimiyadan farqli ravishda terminologik izchillikka ziddiyat keltirmaydi, balki fan ichidagi tasnif va sistematik prinsiplarni asoslashda muhim vosita hisoblanadi²⁸. Bizning tadqiqotlarimizda 22 ta antonimik termin juftligi aniqlangan bo'lib, ularni uch asosiy turga bo'lish mumkin. Sifat oppozitsiyasi (*yuqori/past* daraja). Bular ko'pincha atributiv komponent orqali ifodalanadi:

3.3.3-Jadval

Arxeologik terminlarning ingliz, rus va o'zbek tillaridagi ekvivalentlari

Inglizcha	Ruscha	O'zbekcha
narrow date	узкая дата	tor sana
wide date	широкая дата	keng sana
regular plate	регулярная пластина	muntazam plastinka
irregular plate	нерегулярная пластина	nomuntazam plastinka

Izoh: Bu termin arxeologiyada yoki tarixiy fanlarda xronologik aniqlik darajasining tor doirada ekanini, ya'ni topilma yoki hodisaning sanasi aniqligini (aniq yillar yoki qisqa davr oralig'ida belgilanishi) bildiradi.

²⁶ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – С. 195.

²⁷ Кодухов В.И. Введение в лингвистику. – М.: Высшая школа, 1974. – С. 231.

²⁸ Клейн Л.С. Археологическое мышление. – СПб.: Евразия, 2004. – С. 139–140.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, arxeologik terminologiyada omonimiya hodisasi keng tarqalgan emas, biroq mavjud holatlar terminlarning shakliy yaqinligi ortidan yuzaga kelgan semantik tafovutlarni aniq ko'rsatadi. Xususan, geterogen omonimlar (masalan, *kelt*, *mina*, *stupa*) o'zaro mustaqil tarixiy-etimologik manbalarga ega bo'lib, turli fan sohalaridagi terminologik birliklar bilan kesishadi. Bu esa arxeologik terminlarning izchil tasnif va qo'llanilishida ehtiyotkorlikni talab etadi.

XULOSA

1. Arxeologik terminologiyaning shakllanishida tarixiy-etimologik omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, ularning semantik asoslari, avvalo, madaniy-moddiy merosni nomlash ehtiyojidan kelib chiqqan. Bu bosqichda terminlar ko'proq obyektlarga birlamchi nom beruvchi sifatida shakllangan bo'lsa-da, keyinchalik ilmiy tasnif va sistemalashtirish vositasiga aylangan.

2. Arxeologik terminlar morfologik va semantik tuzilish jihatidan boshqa fan sohalaridagi terminlardan ajralib turadi. Bu esa ularning zamonaviy lingvistik mezonlar asosida o'rganilishini taqozo etadi. Xususan, terminlarning tashqi shakli va ichki mazmuni o'rtasidagi nisbat, ularning fanlararo integratsiyasini tahlil qilishda muhim metodologik mezon sifatida namoyon bo'lmoqda.

3. Zamonaviy arxeologik terminologik tizim ko'p qatlamli tuzilishga ega bo'lib, undagi birliklar o'zaro paradigmatic va sintagmatik munosabatlar asosida shakllanadi. Bu holat ularning ilmiy ifoda vositasi sifatida samaradorligini oshiradi hamda tarixiy-lisoniy rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan semantik qatlamlarni tizimli asosda tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

4. Xalqaro arxeologik terminlarning o'zbek tiliga o'zlashtirilish jarayoni faqat fonetik yoki morfologik moslashtirish bilan cheklanmay, balki ularning semantik strukturasi chuqur anglab, lokal madaniy-konseptual kontekstda qayta shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun, bunday terminlarning ilmiy diskursga integratsiyasi izchil semantik monitoring va metodologik mezonlar asosida olib borilishi lozim.

5. Arxeologik terminlarning semantik tuzilmasi oddiy nominatsion birlik bo'lishdan tashqari, ular ko'pincha giponimik-giperonimik, radiasion yoki parallel bog'lanish asosida bir butun tarmoq hosil qiladi. Ushbu strukturaviy yondashuv arxeologik leksikani chuqur tipologik tahlil qilish imkonini beradi va ilmiy aniqlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

6. Polisemantik birliklar arxeologik terminologiyada nafaqat semantik boylikni, balki ilmiy muloqotdagi potensial anglashilmasliklarni ham keltirib chiqaradi. Ayniqsa, bunday terminlar bir necha fanlararo kontekstda har xil semantik yuklamada qo'llanilgan hollarda, ularning asosiy ma'nosini aniqlash va farqlash ehtiyoji paydo bo'ladi. Bu esa terminologik barqarorlik uchun lingvistik filtrlash va izchil kontekstual tahlilni zarur qiladi.

7. Arxeologik terminlarning leksik-semantik tipologiyasi ularning ichki tizimli tuzilishini ochib berish imkonini yaratadi. Bu jarayonda terminlar orasidagi giperonimik-giponimik, radiasion va parallel munosabatlar aniqlanib, har bir terminning semantik maydondagi o'rni va funksional yuklamasi belgilab olindi. Mazkur yondashuv terminlarning ilmiy aniqligi va fanlararo izchilligini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

8. Polisemik arxeologik terminlar, ko'p hollarda, turli kontekstlarda semantik kengayish yoki torayish orqali yangi tushunchaviy qatlamlarni hosil qiladi. Ularning o'zgaruvchan ma'nodagi strukturalari terminologik nomuvofiqliklar xavfini oshiradi. Shu bois bunday birliklarning lingvistik monitoringi va diaxronik tahliliga asoslangan tahliliy yondashuv zarur bo'ladi.

9. Arxeologik terminlar tarkibida omonimiya hodisasi ko'p uchramasa-da, yuzaga kelgan holatlarda bu hodisa terminlararo fonetik o'xshashlikka emas, balki semantik izolyatsiyalikka tayanadi. Bu esa ularning kelib chiqish manbalarini filologik jihatdan chuqur o'rganishni va etimologik tafovutlarni hisobga olgan holda tasniflashni taqozo etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ В**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

МУХТАРОВА ШАХНОЗА ФАЙЗУЛЛАЕВНА

**СОПОСТАВИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ
АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ
(на материале английского, русского и узбекского языков)**

10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и переводоведение

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за номером B2020.1.PhD/Fil1152.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трёх языках (русском, узбекском, английском) размещен на веб-странице Научного совета (www.samdchti.uz) и в Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Абдиев Муродкосым Болиевич**
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Хайруллаев Хуршиджон Зайниевич**
доктор филологических наук (DSc), профессор

Маматов Абди Эшонкулович
доктор филологических наук, профессор

Ведущая организация: **Джизакский государственный педагогический университет**

Защита диссертации состоится « 12 » ноября 2026 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 при Самаркандском государственном институте иностранных языков (Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарина, д. 43. Тел.: (+99866) 238-29-37; Факс: (+99878) 210-00-18, e-mail: info@samdchti.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрированной под № 63182). Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарина, д. 43. Тел.: (+99866) 238-29-37.

Автореферат диссертации разослан « 22 » мая 2026 года.
(Реестр протокола рассылки № 40 от « 22 » мая 2026 года)



Н.З. Насруллаева
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

У.У. Кулдошов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Д.А. Киселёв
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней (DSc), доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Мировое научное пространство в условиях ускорения процессов глобализации и информационного обмена способствует расширению межотраслевого научного сотрудничества, особенно в области археологии, где исследования ведутся в многоязычной среде – на английском, русском и узбекском языках, что выдвигает важные теоретические и практические задачи для таких наук, как лингвистика, переводоведение и терминология. В условиях современной глобализации стремительное развитие науки и технологий привело к расширению междисциплинарного взаимодействия, интенсификации научного обмена и обсуждению результатов исследований, проводимых на разных языках, на международном уровне. Для специалистов, работающих в многоязычной научной среде, возникает необходимость обеспечения семантической точности и формального соответствия терминов, что определяет научную значимость исследований, направленных на сравнительно-лингвистический анализ терминов в области археологии и их стандартизацию.

В мировом масштабе археологические термины часто имеют междисциплинарное содержание, и их правильная интерпретация и стандартизированное использование формируются в тесной связи со многими науками, такими как археология, история, культурология, антропология, геология. С этой точки зрения, исследование, основанное на сравнительно-типологическом анализе археологических терминов в русском, английском и узбекском языках, играет важную роль в освещении научно-теоретических и практических проблем на стыке этих дисциплин. Актуальность темы определяется, прежде всего, необходимостью правильного понимания содержания археологических терминов, обеспечения их адекватного выражения в переводе и применения в научном дискурсе на основе единой нормативности.

В нашей стране в последние годы развитие научного языка и терминологии на национальной основе признано одной из актуальных задач. В частности, возрастает необходимость систематизации терминов, используемых в междисциплинарных областях, таких как археология, достижения смысловой ясности и лингвистической совместимости посредством их сравнительно-типологического анализа в разрезе английского, русского и узбекского языков. Такие научные исследования служат определению семантических особенностей, структурных моделей и проблем перевода археологических терминов, их стандартизации и обогащению национального научного лексикона. Таким образом, расширяются возможности последовательного развития узбекского научного языка и обеспечения терминологической гармонии в международном научном общении.

Данное диссертационное исследование в определённой мере направлено на реализацию задач, обозначенных в ряде нормативно-правовых документов

Республики Узбекистан, в том числе: Указе Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года №УП-5847 «О утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 6 октября 2020 года №УП-6108 «О мерах по развитию системы образования и науки в новый период развития Узбекистана», Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 19 мая 2021 года №УП-5117 «О мерах по выводу деятельности по изучению иностранных языков в Республике Узбекистан на качественно новый уровень», а также Постановлении Президента Республики Узбекистан от 2 февраля 2024 года №УП-54 «О дополнительных мерах по ускорению реформ в сфере образования». Кроме того, исследование соотносится с положениями Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 августа 2017 года №610 «О мерах по дальнейшему совершенствованию качества преподавания иностранных языков в образовательных учреждениях» и приоритетными направлениями, обозначенными в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 20 октября 2016 года № 352 «О дополнительных мерах по совершенствованию охраны и использования объектов материального культурного и археологического наследия», а также ряду иных нормативно-правовых актов, направленных на развитие гуманитарных наук, укрепление роли государственного языка, повышение терминологической культуры и обеспечение преемственности в сфере изучения и популяризации культурно-исторического наследия страны,

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан: I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В мировой науке по изучению археологической терминологии проведён ряд значимых исследований. На международном уровне особенности формирования археологической терминологии всесторонне были проанализированы в научных исследованиях ряда ведущих учёных. В частности, значительный вклад в данную область внесли такие исследователи, как Э.Стаматиаду, Г.А.Грызлова, В.Д.Табанакова, Г.Н.Матюшин, А.В.Суперанская, Е.Н.Таранова, Н.М.Милюк, А.В.Минасян, Ю.Г.Кокорина, чьи научные труды заслуживают особого внимания²⁹.

²⁹ Speranza, Giulia, Manna, Raffaele, di Buono, Maria Pia & Monti, Johanna. The Archaeo-Term Project: Multilingual Terminology in Archaeology. Лексико-семантические, структурные и функциональные особенности архитектурной лексики: на материале английского, немецкого, греческого и русского языков : дис. ... канд. филол. наук: 10.02.19 / Адыг. гос. Ун-т. – Майкоп, 2010. – 178 с., Gryzlova G.A. Stem-composition as the main way of word formation in archeological terminology. https://www.researchgate.net/publication/343421607_Stemcomposition_as_the_main_way_of_word_formation_in_

В последующие годы в узбекском языке начали появляться исследования, посвящённые вопросам археологической терминологии. Поскольку ранее научная литература по археологии в основном писалась на русском языке, многие термины проникли в узбекский язык через русский. В этом направлении научные труды Дж. Кабирова, Б.К.Турганова, У.М.Уватова, М.И.Филанович, Г.А.Пугаченковой и Э.М.Массона представляют особый интерес³⁰.

Таким образом, как на международном, так и на национальном уровнях сформировалась определённая научная база по археологическим терминам. Международные исследования в основном сосредоточены на разработке многоязычных словарей, тезаурусов и стандартизации терминологии, в то время как локальные (в частности, узбекские и русские) исследования посвящены вопросам перевода, словообразования и функционирования терминов в научной литературе. В будущем необходимо углублённо исследовать узбекскую археологическую терминологию в системной перспективе и обеспечить её соответствие международным терминологическим стандартам.

Связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работы высшего учебного заведения, где выполнена диссертация. Диссертационное исследование было проведено в рамках научной тематики «Коммуникативные аспекты современной лингвистики и лингводидактики», плана научно-исследовательских работ Самаркандского государственного института иностранных языков

Цель исследования заключается в определении семантических, морфологических и функциональных особенностей сформировавшихся археологических терминов на английском, русском и узбекском языках, определение путей преодоления несоответствий и семантических различий,

